


Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yanvar-sentabr 2019 yil


Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **14 804,8** mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **118,5** % ni tashkil etdi.


2019-yil yanvar-sentabr oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga **8 407,0** mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **1,5** martaga oshdi. Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa, asosiy kapitalga investitsiyalarning **43,2** % ni yoki **6 397,8** mlrd. soʻm oʻzlashtirildi.



Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy investitsiya va kreditlari mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga 7 619,9 mlrd. so'm investitsiyalar kiritildi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 178,2 foizni tashkil qildi. Bu yirik investitsion loyihalar bilan bog'liq bo'lib, "UZBEKISTAN GTL" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan tozalangan metan gazidan sintetik suyuq yoqilg'ini ajratib olish uchun mo'ljallangan uskunarlar keltirilmoqda. Yakkabog' tumanida "Mevadan bolalar uchun sharbat" ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmoqda.

Jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 4,6 % i yoki 675,8 mlrd. so'm Respublika byudjeti mablag'lariga to'g'ri kelmoqda.





Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yani jami investitsiyalarning 19,1 % i yoki 2830,9 mlrd. so'm korxonalar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan. Bu yirik korxonalar tomonidan hisobot davrida Sho'rtan qo'rg'onidagi № 13 quduqlarni burg'ulash obyektlari ishga tushirilganligi bilan izohlanadi. Aholi mablag'lari hisobidan 1038,8 mlrd. so'm yoki 7,0 % ini, tijorat bank kreditlari tomonidan jami investitsiyalarning 4,0 % i yoki 586,6 mlrd. so'm, Xorijiy investitsiyalar tomonidan esa asosiy kapitalga investitsiyalarning 13,0 % yoki 1928,4 mlrd. so'm investitsiyalar jalb qilindi.



Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi

(2019 yil yanvar-sentabr oylarida)

| | mlrd.so`m | o`shish sur`ati foizda | Yakunga nisbatan foizda |
|--|----------------|------------------------|-------------------------|
| Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar | 14804,8 | 118,5 | 100,0 |
| Markazlashgan investitsiyalar: | 8407,0 | 155,4 | 56,8 |
| ➤ Byudjet mablag`idan | 675,9 | 175,5 | 8,1 |
| ➤ Davlat maqsadli fond mablag`lari | - | - | - |
| ➤ Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag`lari | - | - | - |
| ➤ Bolalar sportini rivojlantirish | - | - | - |
| ➤ Xukumat kafolati ostida chet el kreditlari | 7619,9 | 178,2 | 90,6 |
| ➤ Toza ichimlik suvi fondi | 111,2 | 3,5 m. | 1,3 |
| Markazlashmagan investitsiyalar: | 6397,8 | 90,5 | 43,2 |
| ➤ Korxonalarining o`z mablag`lari | 2830,9 | 61,8 | 44,2 |
| ➤ Aholi mablag`lari | 1038,8 | 94,7 | 16,2 |
| ➤ to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiya va kreditlar | 1928,4 | 3,2 m. | 30,2 |
| ➤ tijorat banklari kreditlari | 586,6 | 74,4 | 9,2 |
| ➤ boshqa qarz mablag`lari | 13,1 | 3,9 m. | 0,2 |


Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 43,2 % ni yoki 6397,8 mlrd. so`mni tashkil etdi. O`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korhona va tashkilotlar mablag`i 2830,9 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,1 % i o`zlashtirildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hududlar kesimida

(2019 yil yanvar-sentabr oylarida)

| | Jami | | Shu jumladan qurilish-montaj ishlari | |
|---------------------|-----------|------------------------|--------------------------------------|-------------------------------|
| | mlrd.so`m | o`shish sura`ti foizda | mlrd.so`m | Jamiga nisbatan ulushi foizda |
| ➤ Viloyat bo`yicha: | 14804,8 | 118,5 | 5658,2 | 38,2 |
| shaharlar: | | | | |
| ➤ Qarshi | 1520,2 | 117,1 | 784,4 | 51,6 |
| ➤ Shahrisabz | 104,4 | 75,4 | 59,4 | 56,9 |
| tumanlar: | | | | |
| ➤ G`uzor | 1206,0 | 84,1 | 880,1 | 73,0 |
| ➤ Dehqonobod | 602,7 | 95,5 | 478,4 | 79,4 |
| ➤ Qamashi | 162,1 | 170,8 | 85,4 | 52,7 |
| ➤ Qarshi | 608,9 | 229,8 | 200,1 | 32,9 |
| ➤ Koson | 197,5 | 14,1 | 83,7 | 42,4 |
| ➤ Kitob | 322,4 | 153,2 | 160,3 | 49,7 |
| ➤ Mirishkor | 141,4 | 138,6 | 52,7 | 37,3 |
| ➤ Muborak | 1498,2 | 117,6 | 423,5 | 28,3 |
| ➤ Nishon | 7647,2 | 152,7 | 2077,6 | 27,2 |
| ➤ Kasbi | 252,9 | 263,3 | 70,8 | 28,0 |
| ➤ Chiroqchi | 181,1 | 92,9 | 135,6 | 74,9 |
| ➤ Shahrisabz | 134,0 | 117,0 | 83,8 | 62,5 |
| ➤ Yakkabog` | 225,8 | 99,9 | 82,4 | 36,5 |

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning o`shish sur`atlari



o 2019 yil yanvar-sentabr




Hududlar kesimida Kasbi va Qarshi tumanlarining o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Ushbu tumanlarda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning Kasbi tumanida 1,7 % i, Qarshi tumanida esa 4,1 % i o`zlashtirildi.

Nishon tumanida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning viloyatdagi ulushi 51,7 % ni tashkil qilgan bo`lsa, Shahrisabz shahrida esa, bu ko`rsatkich bo`yicha eng kam jalb etilgan investitsiya hajmiga to'g'ri keldi ya'ni – 0,7 %.



**Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar
(viloyatdagi ulushi % da)**



Hududlar kesimida Nishon tumani va Qarshi shahrining jami asosiy kapitalidagi ulushi eng yuqori bo'lmoqda. Bunga sabab, yirik xorijiy korxonalar tomonidan investitsiyalar ko'proq jalb qilinmoqda.


Qamashi va Muborak tumanlarida investitsion faollik natijasida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilib, mos ravishda ularning viloyatdagi ulushi oshib bormoqda. Bu tumanlarda xorijiy hamkorlar bilan "Gidroponika usulida issiqxona" va "Avtomashinalarga ehtiyot qismlar" ishlab chiqaradigan zavod qurilmoqda.



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi


| | Jami | Shu jumladan mulkchilik shakllari bo`yicha | |
|---|----------------|--|----------------|
| | | davlat | nodavlat |
| Jami, mlrd.so`m | 14804,8 | 886,7 | 13918,1 |
| ➤ qurilish-montaj ishlari | 5658,2 | 767,2 | 4891,0 |
| ➤ mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo`jalik jixozlari | 7026,0 | 80,6 | 6945,4 |
| ➤ boshqa xarajatlar | 2120,6 | 38,9 | 2081,7 |

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (jamiga nisbatan % da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibi

(umumiy xajmga nisbatan foiz hisobida)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibida elektr energiyasi, gaz va bug' tarmog'i yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 7570,1 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 51,1 % i o`zlashtirilgan.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi


Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng katta qismi yangi qurilishga yo`naltirilgan bo`lib, yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 11 958,9 mlrd.so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 80,8 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar 1 499,3 mlrd.so`mni tashkil etdi va viloyatda jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 10,1 % ini tashkil etdi. Qolgan 9,1 %, yani 1 346,6 mlrd.so`m boshqa xarajatlarga yo`naltirildi.



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Joriy davrda 9 548,4 mlrd.so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 64,5 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.




Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 1 300,1 mlrd. so`mni tashkil etdi va qolgan 8 248,3 mlrd.so`m xorijiy kreditlar hisobiga to`g`ri

keldi. To`g`ridan - to`g`ri xorijiy investitsiya hisobidan joriy davrda 1 928,4 mlrd. so`m o`zlashtirilgan bo`lib, jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 13,0 % ni tashkil qildi.



Obyektlarni ishga tushirish

kv.m



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 710,5 ming kv.m, bo`lgan 4407 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan bo`lib, ulardan umumiy maydoni 417,8 ming kv.m. bo`lgan 2867 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 73,1 ming kv.m. 726 ta turar joy qurib bitkazilib, ishga tushirildi. Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida solishtiradigan bo`lsak, eng ko`pi Kitob tumanida ishga tushirilgan 90,0 ming kv.m. va u viloyat bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 12,7 % ini tashkil etdi. Eng kam turar joy Muborak tumanida ishga tushirilgan bo`lib, uning ulushi 1,5 % ni tshkil etdi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun ma'sul:

A.Isaev

aloqa telefoni:

75-221-32-47